

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 4

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 4

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova

O'zbek tilida metafora va metonimiya shakllanishida milliy tafakkurning o'rni.....6

Zoxira Xidraliyeva

Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarining o'zaro munosabati23

Hairatullah Barlas

Tuhfetul-Abidin'in Şekil Özellikleri35

ADABIYOTSHUNOSLIK

Elmira Adilbekova

Hacı Bektaş Veli'nin Ahlaki Düşüncesi: Anadolu Tasavvuf Geleneğinde Etik Bir Yaklaşım.....51

Feruza Burxonova

Ijodkor konsepsiyasi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.....72

Parviz Izzatillayev

Asliy matn va forsiy tarjima qiyosi: "Majolis un-nafois" – "Hasht bihisht"89

Gulrux Xudoyorova

Lirik kechinma tabiati110

Тюркан Вердиева

Отражение литературно-культурной среды Гянджи XII века в драматических произведениях XX века Мехти Гусейна и Камали Агаевой127

Leyla Karimova

Makedoniyalı İskenderin Azərbaycana Seyaheti: Tarih ve Nizami Gencevinin Hayal Dünyasında Yansıması140

SOTSILOGIYA

Fatxulla Abduvaliyev

Globalashuv jarayonlarining ta'lim migratsiyasiga ta'siri152

CONTENT

LINGUISTICS

- Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova**
The role of National Worldview in the Formation of Metaphor
and Metonymy in the Uzbek Language.....6
- Zakhira Khidraliyeva**
The Relationship Between the Oghuz Dialects
of Southern Kazakhstan.....23
- Hayratullah Barlas**
Formal Characteristics of *Tuhfetul-Abidin*35

LITERATURE

- Elmira Adilbekova**
The Moral Philosophy of Haci Bektaş Veli: an Ethical
Approach in the Anatolian Sufi Tradition51
- Feruza Burkhanova**
The Concept of the Creative author and Ideological–Artistic
Characteristics.....72
- Parviz Izzatillaev**
Comparison of the Original Text and the Persian Translation:
“Majolis un-Nafois” – “Hasht Bihisht”89
- Gulrukh Khudoyorova**
The Nature of Lyrical Experience.....110
- Turkan Verdiyeva**
Reflection of the Literary and Cultural Sphere of the
XIIth Century Ganja in the XXth Century Dramas of Mehdi
Huseyn and Kamala Agayeva127
- Leyla Karimova**
The Journey Alexander of Makedonian the Great to
Azerbaijan: its Reflection in History and in Nizami Ganjavi’s
imaginative World140

SOCIOLOGY

- Fathulla Abduvaliev**
The Impact of Globalization Processes on Educational Migration.....152

Ijodkor konsepsiyasi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlar

Feruza Burxonova¹

Abstrakt

Maqolada badiiy ijod konsepsiyasining tasnifi, ijodkor “men”i, shaxs fenomeni, asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan parallel tadqiq etiladi. Yozuvchi fenomenini anglatadigan, konsepsiyasini belgilaydigan, barcha asarlariga xos mushtarak jihatlarni namoyon etib turuvchi bir qator xususiyatlar borki, ular yozuvchi “men”ini belgilovchi jihatlardan biridir. Ularning eng muhimlari sifatida ijodkorning barcha asarlari asosida yotuvchi mushtarak g'oyaviy birlik; badiiy ijodda zamon va makon birligi; obrazlar tizimidagi mushtaraklik; yangicha ifoda birligi deb belgilanadi. Shu asosda badiiy asar g'oyasi, g'oyaviylik tushunchalari ijodkor konsepsiyasini belgilovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanib, ijodkorning ijodiy niyati, asar yaratishdan maqsadi, mavzu ko'lami, obrazlar tizimi, shakl va mazmun birligi hamda ifoda uslubi kabi ko'plab badiiy unsurlarni bir-biriga bog'lab turadigan, yaxlit bir markazga birlashtiradigan vosita sifatida izohlanadi.

Kalit so'zlar: *asar, badiiy konsepsiya, badiiy niyat, badiiy ijodda zamon va makon birligi, g'oyaviy-badiiy xususiyat, g'oyaviy birlik; obrazlar tizimidagi mushtaraklik, xronotop, yangicha ifoda birligi.*

Kirish

Ijodkor konsepsiyasi keng tushuncha. U yozuvchining adabiy-estetik qarashlaridan tortib asarlarida namoyon bo'layotgan g'oyaviy-badiiy xususiyatlarning barcha qirralarini o'zida mujassam etadigan, bir nuqtada birlashtiradigan hodisadir.

Konsepsiyaga turli manbalarda ta'riflar berilgan bo'lib, ularning mushtarak jihatlari bir-biriga bog'lab turadi. Jumladan, “O'zbek tilining izohli lug'ati” ko'p jildligida konsepsiyaga quyidagicha ta'rif beriladi: “Konsepsiya (lot. Conceptio – to'plash, birlashtirish; tizim; ibora) qarashlar, fikrlar yo'nalishi tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli. Tarjima konsepsiyasining

¹ *Burxonova Feruza* – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti.

E-pochta: burhonovaf8@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6069-0267

Iqtibos uchun: Burxonova, F. 2025. “Ijodkor konsepsiyasi va g'oyaviy badiiy xususiyatlari”. *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 72 – 88.

tayanch nuqtasi interpretatsiyaviy mavqedan iborat.

O'MEda konsepsiyaga ta'rif berilar ekan, bevosita badiiy adabiyot bilan bog'lab, quyidagi mulohazalar bayon etiladi:

“Konsepsiya – (lot. Koncentio – majmua, tizim) – 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtayi nazar; 2) adabiyotda – biror asarning g'oyasi. K. badiiy asar mohiyatini, ijodkorning “meni”ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar K.si ayrim holatlarda muallifning sub'ektiv qarashlaridan keng qamrovli bo'lishi mumkin. Ba'zan muallif mo'ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e'tibori b-n asar o'z K.siga ko'ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo'ladi. O'quvchining ma'naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar K.si alohida ta'kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Umuman, K. badiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi” [Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси 2023, 23].

Adabiyotshunos Q. Qahramonov fikricha, “Estetik nuqtayi nazardan, konsepsiya badiiy asar haqida yuzaga chiqayotgan ko'plab yangicha ilmiy qarashlar tizimidir” [Қаҳрамонов 2009, 14 – 15]. Olim konsepsiyani yozuvchi dunyoqarashi bilan bog'lab, uning ijtimoiy, ma'naviy olamdagi o'zgarishlarga birdek taalluqli ekanini ta'kidlaydi.

“Ma'lumki, har bir badiiy asar aniq shaxs – ijodkor tomonidan yaratiladi. Chinakam iste'dodlar tomonidan yaratilgan badiiy yetuk asarlar poetik tafakkurni u yoki bu jihatdan yangilaydi, adabiy hayotda yangi tendensiyalar, oqimlar va yo'nalishlarning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Ayni chog'da ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi” [Қаҳрамонов 2009, 16].

Shunga ko'ra, ijod konsepsiyasini yuzaga keltiruvchi – yaratuvchisi bo'lgan ijodkor shaxs fenomeniga ham oydinlik kiritish zarur bo'ladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: xo'sh, ijodkor shaxs kim o'zi? Uning boshqalardan farqlab turuvchi alohida belgi-xususiyatlari bormi? Agar bor bo'lsa, u qanday namoyon bo'ladi? Ayni shu tipdagi savollarga javob topish orqali ijodkor konsepsiyasini anglash, badiiy ijod tabiatini his qilish, mohiyatiga yetish mumkin.

Asosiy qism

Ijodkor shaxsning ta'rif-u tavsifini berishdan oldin, shaxs tushunchasining mazmun-mohiyatini angash zarurati yuzaga

chiqadi. Bu masalani adabiyotshunoslikdan tashqari falsafa, sotsiologiya, psixologiya kabi sohalarining har biri ham o'zicha tushuntiradi.

Keyingi paytlarda ham ijodkor shaxs haqida faylasuflar, nafosatshunoslar va ijodkorlar tomonidan aytilayotgan fikr-mulohazalar qimmatlidir. Iste'dodli shoir va faylasuf Abdulla Sherning "Go'zallik yog'dusi" nomli kitobida ijodkor shaxs, badiiy asar, ijod jarayoni, ijodiy niyat, g'oya va g'oyaviylik hamda badiiylik haqidagi mulohazalari xarakterlidir. Jumladan, ijodkor shaxs tabiati haqida fikr yuritir ekan, uning shaxsiyatida ikkita "men" borligini ta'kidlab yozadi:

"Ijodkor shaxsning ruhiy tip sifatidagi murakkabligi shundaki, unda bir emas, ikki **Men** yashaydi. Birinchisi, tashqarigan qaraganda ko'zga tashlanadigan, siz bilan bizning oramizda yuradigan, jamiyat qonun-qoidalari, milliy urf-odatlar, oilaviy yoki kasbiy shart-sharoitlar mezonlari bilan, to'liq bo'lmasa-da, ma'lum ma'noda o'lchanadigan va baholanadigan **Men**. Ikkinchisi – hech qanday qonun-qoidani tan olmaydigan ichki – botiniy **Men**, uni yuqoridagi mezonlar bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi. Birinchi **Men** hamma odamlarda xos. Ikkinchi **Men** esa faqat ijodkorda mavjud bo'ladi" [Шep 2017, 77].

Ko'rinib turibdiki, munaqqid ijodkor shaxsiga to'xtalar ekan, uni ikki "**Men**"ga – ya'ni zohiriy va botiniy, ichki "**Men**"ga ajratadi, qisman Z. Freyd ta'limotiga tayangan holda fikr yuritadi. Ayni paytda Freyddan farqli ravishda ikkinchi "**Men**"ni, ya'ni ichki "**Men**"ni birinchi "**men**" tartibotlariga, da'vatlariga bo'ysunmaydigan, boshqacha ayitganda, "qalb amri", "qalb da'vati" asosida ish yuritadigan "**Men**" sifatida tasvirlaydi. Ayni "Men" ijodkor shaxsini anglatishi aytiladi.

Munaqqid fikricha, ikkinchi **Men** ijod jarayonida erkin bo'lib, birinchi "men"ga bo'ysinmaydi, bordi-yu tashqi shart-sharoit, muhit tomonidan taz'iy bo'lib ijod erki buzilsa, asar chinakam san'at namunasi bo'lmay qoladi, soxta asar yaratiladi.

Abdulla Sher e'tibor qaratgan yana bir masala ijodkorining chinakamiga fidoyiligi, mehnatkashligidir. Bu fidoyilik asar yozish uchun kecha-yu kunduz vaqt tanlamay tinimsiz ishlashi, qora mehnatdan qochmasligida ko'rinadi. Ayni paytda, munaqqid ijodkorlarni alohida bir tip sifatida ta'riflab, ularning yana bir o'ziga xosligi yolg'izlikka intilishida, oilasi bilan yashaganda ham o'zini yolg'iz his etib, odamlardan o'zini olib qochishida, deb biladi. Bu hol san'atkorlar uchun ixtiyoriy hodisa ekanini, ular ko'proq

ijod olamida yashashlarini ta'kidlab," aynan mana shu yolg'izlikda o'zining mohiyati – ikkinchi **Meni** bilan topish..." [IIIep 2017, 80] ishlari aytiladi.

Albatta, munaqqid bu bilan ularning tashqi olamdan mutloqa uzilib yashashadi, degan fikrni ilgari surishdan yiroq. Bunday yolg'izlanish ko'proq ijodiy jarayonga xos holatdir. Munaqqid yozuvchilik salohiyatini, ilhomiy holatning hammada bir xil emasligiga e'tibor qaratib, ularning uch xil darajasini farqlab ko'rsatadi: "1.Qobiliyat; 2. Iste'dod; 3. Daho" [IIIep 2017, 82]. Munaqqid qobiliyatli ijodkorlarning badiiylik sirlaridan yaxshi xabardor, badiiy "usullardan – majozilikning ko'pgina sirlaridan mohirona foydalana oladigan, zamon nimani talab qilsa, davr uchun dolzarb bo'lgan masalalarni ko'tarib chiqadigan, yaratgan asarlari adabiy jarayonda dastlab shov-shuvga aylanib, o'ttiz-qirq yil yashab, keyin asta-sekin nazardan qoladigan asarlar bituvchi ijodkorlarga nisbatan qo'llanishini bildirib, bunga misol sifatida I.Rahimning "Hilola" qissasini keltiradi.

Adib ikkinchi o'ringa iste'dodni qo'yadi. Bunday ijodkorlar ozchilikni tashkil etadi va davr san'atining yetakchi yo'nalishlarini belgilab beradi, o'z uslubi bilan boshqalardan ajralib turadi. "...u yaratgan asarlar o'z zamonasi uchun ham, keyingi davrlar uchun ham eskirmaydi" [IIIep 2017, 83].

"Eng yuksak darajadagi san'atkorni biz daho deb ataymiz. Daho san'atkorlar kamdan-kam uchraydi. Daholarni zamondan yuksak qo'yishadi, zero, butun boshli tarixiy davrdan ko'ra bir shaxs insoniyat uchun qimmatliroq bo'lishi, ko'proq foyda yetkazishi mumkin" [IIIep 2017, 83 – 84].

Albatta, munaqqidning daholarga bergan ta'rifiga qo'shishimiz mumkin, ayni paytda dahoni "butun bir tarixiy davr"ga qarama-qarshi qo'yib baholash qanchalik o'rinli degan ishtiboh paydo bo'ladi kishida. Zero, muallifning o'zi ham e'tirof etganidek, daholar zamondan tashqarida paydo bo'lmaydi, shu zaminda o'sib-o'nadi, yetiladi va o'z davridan yuksaklikka ko'tariladi. Uning davrdan yuksaklikka ko'tarilishini ayni shu tarixiy davrga qarama-qarshi qo'ysa bo'ladi, degan ma'noni anglatmasligi kerak. Balki shu davrning eng ilg'or g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan holda eng yuqori cho'qqisini zabt etish daholarga xosdir, degan xulosa muhimdir. Birgina muallif daholar qatorida sanagan Hazrat Navoiy misolida yondashadigan bo'lsak, shoir yashagan davr adabiyotining yetakchi motivini tasavvuf g'oyalari tashkil etishini nazarda tutsak, Navoiy ushbu g'oyalarni, komil inson falsafasini badiiy jihatdan o'z

zamondoshlariga nisbatan eng yuksaklikka ko'taruvchi, ilohiylik bilan bog'lash darajasiga yetkazganiga guvoh bo'lamiz. Binobarin, bu o'rinda davr adabiyotining yetakchi g'oyasi Navoiyga ham ilhom manbaya bo'lgani, yuksaklikka undagani shubhasiz.

Shu nuqtayi nazardan har bir davrda yashab ijod etgan ijodkor asarlarida davr bilan bog'langan va butun asarlarining mohiyatidan qizil ip bo'lib o'tadigan g'oyaviy birlikning bo'lishi joiz, deb o'ylaymiz.

Umuman olganda, yozuvchi fenemonini anglatadigan, kon-sepsiyasini belgilaydigan, barcha asarlariga xos mushtarak jihatlarni namoyon etib turuvchi bir qator xususiyatlar borki, ular yozuvchi "men"ini belgilovchi jihatlardan biridir. Biz quyida ularning eng muhimlariga to'xtalmoqchimiz.

1. Ijodkor asarlaridagi mushtarak g'oyaviy birlik.

Badiiy asar g'oyasi, g'oyaviylik tushunchalari ijodkor konsepsiyasini belgilovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanib, ijodkorning ijodiy niyati, asar yaratishidan maqsadi, mavzu ko'lami, obrazlar tizimi, shakl va mazmun birligi hamda ifoda uslubi kabi ko'plab badiiy unsurlarni bir-biriga bog'lab turadigan, yaxlit bir markazga birlashtiradigan vositadir.

"Badiiy asarda yozuvchi ifodalagan asosiy fikr, tasvir predmetiga bergan bahosi "asarning g'oyasi" deb ataladi. Badiiy asardagi g'oya san'at asarining mazmuniga asos bo'lgan umumlashtiruvchi, emotsional obrazli fikrdir" [Султон 2005, 98].

Nazariyotchi olim H. Umurovning "Adabiyot nazariyasi" darsligida "Yozuvchining tanlagan mavzusi yaratilayotgan asarida aytmoqchi bo'lgan salmoqli fikri, g'oyasi bilan chambarchas bog'liqdir. G'oya o'z navbatida asardagi obrazlarga singigan bo'lib, ularning faoliyatlari - xatti-harakatlari, kurashlari, orzu-istaklari orqali reallashtiradi" [Умуров 2002, 127], degan fikr ilgari suriladi.

Yuqoridagi keltirilgan ikki nazariyotchi olimning qarashlaridagi mushtarak jihatlari shunda ko'rinadiki, badiiy g'oya asar mavzusi, yozuvchining ijodiy niyati, shakl va mazmuni, obrazlar tizimi bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga chiqadigan fikrlar tizimidir.

Abdulla Sher badiiy ijod jarayonining ibtidosi san'atkorning muayyan g'oya yoki g'oyalari tizimini badiiyat orqali yetkazish istagi bilan bog'laydi. Buni g'oyaviy niyat deb ataydi. Muallif fikricha, g'oyaviy niyat biror-bir yerda yoki ijodkorlarning asarlarida, nazariy qo'llanmalarda yoki real voqelikning o'zida tayyor holda

uchraydigan narsa emas, balki asar yozilish jarayonida paydo bo'ladigan noreal qarashlar tizimidir. "U (ya'ni, g'oyaviy niyat - B.F.) reallikni in'ikos etishga qaratilgan esa-da, o'zi reallik bo'lmagan, ammo yaratilajak asarning ideali, san'atkor ruhidagi ideal sifatida vaqtincha – badiiy ijod jarayonidagina real hukmronlik qiladigan noratsional ijodiy talab. Shuning uchun u tizimli yoki mantiqiy tarzda vujudga kelmaydi, balki birdan paydo bo'ladi, har bir asar uchun alohida "tug'iladi" [Шер 2017, 87].

Ijodiy jarayoni va g'oyaviy niyat masalalari jahon va rus psixolog olimlari tomonidan uch yo'nalishda o'rganib kelinadi. Bulardan dastlabkisi ijodiy jarayonda hayot voqeligini, narsa va hodisalarni estetik qabul qilishda mantiq, tajriba, shuningdek, ularga yondashuvda assotsiativ ijodiy munosabatning birinchi o'rinda turishidir. Bu orqali ijodiy jarayon badiiy tasavvurga ega insonning ratsional harakatlari, faoliyati bilan bog'liq, degan qarash ilgari suriladi. Estetik qabul qilish va badiiy aks ettirish mana shunday ratsional jarayonlarning bir butun kompleksi sifatida tushuntiriladi. Psixolog olim L. S. Vigotskiyning yozishicha: "Daraxt rasmini ishlayotgan rassom uni butunligicha chizmaydi. Chunki har bir yaproqni alohida-alohida chizishi ham mumkin emas. Umumlashtirib beradi – bir nechta alohida yaproq haqidagi tasavvurlarini bir joyga jamlaydi. Yozuvchi ham xuddi shunday, o'ziga kerak bo'lgan voqealar chizig'ini tanlab oladi. Ijodiy kuch bilan hayot materialini qayta ishlaydi, qayta quradi" [Выготский 1968, 206].

Masalaning ikkinchi yo'nalishdagi talqin, Abdulla Sher yuqoridagi qarashlarida aytganidek, ijodiy jarayonda "real hukmronlik qiladigan noratsional ijodiy talab" bo'lib, g'ayrushuriylik, ong osti psixoanalitik jarayonlar bilan aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Jumladan, adabiyotshunos U.Jo'raqulov "Psixoanaliz va badiiy ijod" nomli tadqiqotida bu haqda shunday fikrlarni bildiradi: "Psixoanaliz adabiyot yoki adabiy asar subyekti deyilganda ikki holatni diqqat markazida tutish lozim. Birinchi holatda adabiy asar muallifi ijodiy jarayonni (ilhom onlari)dagi murakkab ong osti oqimini o'zida muhrlagan vosita o'laroq namoyon bo'ladi. Bunda muallif ham, asar voqeligi ham shu holat hukmi, boshqaruvi ostida harakat qiladi. Ayni holatning badiiy asar uchun universal mohiyat kasb etish-etmasligi ikki narsa bilan bog'liq: a) muallifdagi haqiqiy ijod jarayonining davomiyligi, iste'dod darajasi; b) asarning zamon nuqtayi nazaridan maydonga kelish ko'lami, uning qaysi adabiy tur yoki janrda yozilganligi" [Журақулов 2006, 64].

Ko'rinadiki, olim talqinicha freydizm ta'limotining asosida ijod psixologiyasiga tayanish yotadi. U ijodiy kayfiyat va ijodkorning murakkab holatini noyob, har qanday odamda uchramaydigan hodisa deb hisoblaydi. Neofreydchilarning peshqadam vakili K. Yung Freyd ta'limotini yangicha talqinlar bilan boyitadi. Z. Freyddan farqli ravishda "...inson ongi va ongsizlikka mansub bo'lgan masalalarni falsafa tarixi, she'riyat, diniy, madaniy yodgorliklar yordamida ko'rib chiqdi, ularni yangicha talqin qilishga harakat qildi" [Fapб фалсафаси 2004, 664].

Bu xatti-harakatlar ijod faoliyatiga xos nozik nuqtalarni tahlil qilishda Sharq falsafasiga hamohang ekanligini ko'rsatadi.

Haqiqatdan ham, Sharq dunyosi ijodni ilohiy mo'jiza deb tushunadi va tushuntiradi. Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boborahim Mashrab kabi mumtoz shoirlarimiz ijodida bu fikrlar ramz-majozlarga o'rab tasvirlangan. Alisher Navoiy ham o'zining "Xamsa"sidagi so'nggi doston "Saddi Iskandariy"da voqeiy tush tasvirini beradi. Tushida ustozlari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy ruhlari uni olqishlab, oq fотиha berganlarini yozadi. "Boburnoma"da berilgan bir nechta ilohiy tush tasviri, Mashrab she'riyatidagi zamindan uzilish holatlari fikrimizga yaqqol dalildir.

Sobiq sho'rolar davridagi qarashlarni istisno qilganda ijod ahli doimo adabiy hodisalar va ilhom jarayonlarini ilohiyot bilan bog'lab kelganlar. Bu boradi N.Eshonqul bilan bo'lgan suhbatlarimizdan birida: *"Asar yozishga undaydigan, uni hayotiy ehtiyojingizga aylantiradigan kuch nimada deb o'ylaysiz?"* degan savolimizga shunday javob berdilar:

" - Ijod ilohiyatni, olam va odam uyg'unligini, yaxlitligini anglash va unga intilishdan tug'iladi. Bu anglash gohida og'riq, gohida shaydolik, gohida taqlid, intilish, sog'inish, qo'msash shaklida namoyon bo'ladi. Qay shaklda namoyon bo'lmasin, chinakam san'at asari, chinakam ijod namunasi insonni Yaratganga – olam va odam yaxlitligiga, odam va olam birlashgan va keyin ajrashgan nuqtaga boshlab boraveradi. Ijod yo'li – Yaratganni his etish va unga intilish, uning yo'liga mayoq yoqish yo'lidir. Ijod ilohiyatni botinan his qilish va o'zi his qilganlarni boshqalarga ham aytish ehtiyoj.

Ilhom onlarisiz, zo'raki yozilgan narsalar odatda sun'iy va soxta chiqadi, Qodiriy bobo aytgandek, "olov" sezilmaydi. Asarga ichki uchqunni ijodkorga Xudo beradi deb o'ylayman. Agar o'sha ilohiy "olov" bo'lmasa, asar adabiy asarga aylana olmaydi..." [Ma'rifat

2018, 11].

Demak, ijodkor shaxsi va ijod jarayoni singari hodisalarni jo'ngina tushunish va tushuntirish mumkin emas. Bu hodisaga odatdagi real yondashuvlardan o'zgacharoq qarash lozim.

Albatta, ijodkor ham hamma qatori bir odam. Uning turmush tarzi, ijtimoiy hayoti, o'zgaralar bilan muloqot-munosabatlari odatda boshqalarnikidan ko'p ham farq qilavermaydi. Biroq, ular ijod jarayonida, asar yaratilayotgan pallalarda oddiy odamlarga o'xshamaydilar. Ular qandaydir ilohiy tuyg'ular og'ushida yashaydilar.

Mashhur polyak yozuvchisi, tanqidchi Yan Parondovskiy o'zining "So'z kimyosi" nomli asarida yozuvchilik faoliyatining bir-biridan farqlanuvchi ikki qirrasini ko'rsatadi. "Biror g'oyadan ilhom oladigan yozuvchi bilan yozuvchilik instinktining undovi bilan ijod qiladigan yozuvchi o'rtasida tafovut bor. G'oyadan ilhom oladigan yozuvchi bir necha xil faoliyat qurollari orasidan qalamni tanlab oladi va bordi-yu, qalamni tanlash uning uchun birdan-bir yagona imkoniyat bo'lgan bo'lsa, oldiga qo'ygan vazifasini ado etishi bilanoq qalamni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yadi. Ikkinchi toifa yozuvchi uchun esa hayotdan ko'z yumgandan keyingina ijod tamom bo'ladi. Petrarka aytganidek: "Scribendi vivendique mihi unus finis erit" ("Men yashashdan to'xtasamgina yozishni bas qilaman") [Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида 2010, 242].

Yan Parondovskiyning fikriga qo'shilish mumkin. Tayyor g'oyalarga asoslanib yaratilgan asarda ijodkorning tashqi "men"i yetakchilik qiladi. Ya'ni yozuvchi asar konsepsiyasini belgilashda aqlga suyanadi, asarni tayyor g'oyaga moslashtiradi, bunda ilhom, intuitiv kashflardan ko'ra ijodkorning fikrlash tarzi ustunlik qiladi. Bu xildagi asarlarni yozishda ham iste'dod zarur, biroq bunda iste'dod tafakkurga bo'ysundiriladi. Yozuvchi e'tirof etgan ikkinchi yo'nalish, ya'ni ichki "ovoz" – intuitsiya undovi bilan, tuyg'ular, kechinmalar fonida yaratilgan asarlar umrboqiylikka daxldor asarlar hisoblanadi.

Italyan adabiyotshunosi Umberto Eko o'zining "Joys poetikasi" asarida adib ijodi va estetik konsepsiyalarini uning biografiyasi bilan bog'lab tadqiq etadi. Tadqiqotda J. Joysning o'smirlik paytlaridayoq Foma Akvinskiy falsafiy dunyoqarashiga ruhan yaqinlashuvi, 16 yoshida Ibsen ijodidagi san'at va axloq mushtarakligini anglagani, Jordano Bruno ijodidagi chuqur dramatzmdan ruhiy qiynoqlar va san'atning hayotni o'zgartiruvchi kuch ekanini his etgani aytiladi. Yozuvchi hayotni estetik ideal

bilan simbolik butunlikda tasvirlash mahoratining shu tarzda shakllanganiga urg'u beradi [Умберто 2006, 14 – 15]. Bundan ma'lum bo'ladiki, Joys ijodi g'oyaviy asosining shakllanishida ijod psixologiyasiga xos murakkab jarayonlar qatorida biografik omillar, shaxsiy did va bilim ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Shoir Abdulla Sher san'atkor shaxsini o'ziga xos alohida ruhiy tip sifatida qayd etib, u ijod qilayotgan paytda qandaydir noratsional, aql vositasida tushunib bo'lmaydigan holatga, o'zini o'zi emas, boshqa nimadir boshqaradigan jarayonga kiritadi, o'zini zamon va makonning hukmdoridek his etadi, deb baholaydi. Bu holatni zikrga berilgan darveshning "hol" maqomigagina o'xshatish mumkin der ekan, ilhom va ijodiy jarayonning ilohiyotga daxldorligini e'tirof etadi [Шеп 2015, 305].

Tarixiy faktlarga qaraganda, shaxs tushunchasining shakllanishi ma'lum odamlar emas, butun boshli davrlar evrilishiga olib kelishi mumkin. Erk va ozodlikka intilish g'oyasi dastlab shaxs ko'nglida, so'ng esa uning faoliyati va ijodida, bundan o'tib jamiyat hayotida namoyon bo'ladi. Olim N. Konradning yozishicha: "Gumanizm, bizning taxminlarimizga ko'ra, uyg'onish davrining ilk mujdalaridan darak beradi. Renessans gumanizmi asosini insonning o'z shaxsiyati qimmatiga ishonchi tashkil etdi" [История италянской литературы 1964, 34].

Demak, fikr erkin hayotga, erkin bo'lgan ichki ehtiyoj shaxs fenomenining maydonga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday qarashlar ta'sirida yozilgan she'rlar, qissa va romanlar shaxs konsepsiyasini ifodalovchi obrazlarga boy bo'ladi. Natijada yagona shaxs ongida tug'ilgan erk va ozodlik, mustaqil inson g'oyasi ijtimoiylashadi. Davrlar, avlodlar fikriga ta'sir qilib, ijtimoiy turmush rivojini ta'minlaydi.

Shu jumladan, keyingi davr o'zbek adabiyotshunosligida ham ijodkor shaxsi talqiniga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu hol, ayniqsa, yozuvchi ijodini biografik yondashuv asosida tadqiq etuvchi ilmiy izlanishlarda ko'proq kuzatiladi. A. Qodiriy, A. Cho'lpon, A. Fitrat kabi jadid adabiyoti namoyandalari ijodiga oid biografik talqinlarda, shuningdek, X. Do'stmuhammad, N. Eshonqul, U. Hamdam, A.Yo'ldoshev kabi voqelikni yangicha idrok etishga harakat qilayotgan zamonaviy ijodkorlar asarlari talqinida g'oyaviy birlik masalasiga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. O. Sharafiddinov, U. Normatov, N. Karimov, Q. Yo'ldoshev, Q. Qahramonov, D. Quronov, A. Ulug'ov, B. Karimov, U. Jo'raqulov, I. Yoqubov, U.H amdamov kabi olimlarning tadqiqotlarida badiiy

asarni yozuvchi g'oyaviy niyati bilan bog'lab talqin qilishga katta e'tibor qaratilgan. Aynan shu holatlar ijodkorning ijodiy laboratoriyasiga kirish, uning ijod jarayonidagi ruhiy holatini, ijod psixologiyasini belgilash imkoniyatini beradi. Xususan, B.Karimov badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metodning o'rni katta ekanini, har qanday yozuvchi asarlarida, eng avvalo o'z qalbini, ma'naviy dunyosini aks ettirishini alohida qayd etadi [Каримов 2016, 166-174].

Haqiqatan ham, badiiy asar mutolaasi jarayonida uning satrlari qa'tida biz ijodkor nigohi, qalb kechinmalari, fikr dunyosi, voqelikka estetik munosabatini, bir so'z bilan aytganda, ijodkor "men"ini anglaymiz.

Umuman olganda, yozuvchi fenemonini anglatadigan, konsepsiyasini belgilaydigan, barcha asarlariga xos mushtarak jihatlarni namoyon etib turuvchi bir qator xususiyatlar borki, ular yozuvchi "men"ini belgilovchi jihatlardan biridir. Biz quyida ularning eng muhimlariga to'xtalmoqchimiz. O'z qarashlarimizni ijodiy konsepsiyasida bir-biriga yaqinlik bo'lgan zamondosh ijodkorlar – X. Do'stmuhammad, N. Eshonqul hamda U. Hamdam ijodi misolida tushuntirishga harakat qilamiz.

Istiqlol davri o'zbek nasrining tamal toshini qo'yishga faol hissa qo'shayotgan, uning ijodiy qiyofasini belgilashga xizmat qilayotgan bu ijodkorlarning har bir asari o'zi bir olam. Ularning hikoyalaridan tortib qissa va romanlarigacha, har bir asarida o'ziga xos g'oyalar tizimini uchratishimiz mumkin. Ayni paytda barcha asarlaridan qizil ip bo'lib o'tadigan mushtarak g'oyaviy birlik ilgari surilganiga ham guvoh bo'lamiz. Adabiy jarayonda faol qalam tebratib kelayotgan zamondosh ijodkorlar bo'lgan X. Do'stmuhammad, N. Eshonqul va U. Hamdam ijodlarida mushtarak jihatlar ko'p. Eng avvalo bu ijodkorlar dunyoqarashidagi mushtarakliklarni ta'kidlash zarur. Har uchala adibning davr ruhini chuqur his etishi, jahon adabiyotini chuqur bilishi, dunyoviy fikrlashi, jahon adabiy tajribalariga moyillik, o'z ijodida bunday eksperimentlarni qo'llash, shuningdek, milliy zamindan, milliy ruh, qadriyat va folklordan ozuqlanish, sinkretlilik, o'z asarlarida G'arb va Sharq ijodiy sintezini qo'llashi kabi ko'plab yo'nalishlarni bunga misol sifatida keltirish mumkin. Bundan g'oyaviy mushtaraklik X.Do'stmuhammadning "Jajman", "Shabada", "Un soniya", "Dardingni olay", "WO AI NI", "Suroq", "Nigoh", kabi hikoya va qissalari, "Donishmand Sizif" romani, N.Eshonqulning "Tobut", "Maymun yetaklagan odam"

hikoyalari, "Qora kitob", Tun panjaralar" qissalari hamda "Gurug'li yohud hayot suvi" romanida, U.Hamdamning "Tosh", "Qaytish", "Bir piyola suv" hikoyasi, "Yolg'izlik" qissasi, "Yo'l" romanlarida ilgari surilgan yetakchi konsepsiya misolida ko'rish mumkin.

Ma'lumki, yozuvchi "men"i, uning o'ziga xos botiniy olamining badiiy modeli yaratgan asarlarida akslanadi. Zero, "Ijod namunasi ijodkor shaxsiga mutonosib bo'ladi" [Йўлдошев 2018, 278]. Mustaqillik davrida faol ijod etayotgan bu ijodkorlarning badiiy yaratqilari va ularda ilgari surilgan g'oyaviy-badiiy konsepsiya davr adabiy jarayonining yetakchi tamoyillarini ham belgilab beradi. Shu ma'noda hozirgi adabiy jarayonning yetakchi tamoyillari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratish mumkin: mafkuriy ta'ziyqdan holi hurfikrlilikni kuchayishi; inson konseptining yetakchi o'ringa ko'tarilishi; yaratilayotgan asarlarda xalq og'zaki ijodi, mif va afsona, milliy ruh va qadriyatlardan oziqlanish; diniy-tasavvufiy mazmunga urg'u qaratilishi; ramziy-majoziy mazmun, polifonik tafakkurning yetakchilik qilishi; jahon adabiy tajribalariga monandlik; konsepsiyada sinkretlilik, G'arb va Sharq ijodiy sintezi; subyektivizm ustuvorligining ortib borishi; turli adabiy oqim va yo'nalishlar, "izm"lar orqali mohiyatga intilish; assotsiativ syujet tipi va epifaniyaning yetakchilik qilishi; badiiy ifoda va tasvir murakkabligi, poetik tilning mukammallashuvi; badiiy obraz va xarakterlar xilma-xilligi; dardchi ruhning ustuvorligi va h.k.z.

Mazkur ijodkorlarning ijodiy konsepsiyasidagi mushtarakliklar davr g'oyasiga hamohanglik, dunyoqarashdagi uyg'unlik va o'z ijodiy-uslubiy individualligiga ega ekanida ham ko'zga tashlanadi. Adiblar ijodidagi mushtarak g'oyaviy konsepsiya eng avvalo asarlarida o'zlikni anglashning ustuvorligi bilan belgilanadi. Ushbu konsepsiya atrofida ma'nisizlikdan ma'no topish, inson qadrini yuksaltirish, tuzumning absurd qahramoni va uning mashaqqatli hayotini mazmunga, zavq-shavqqa, mehr-muhabbatga to'ldirish kabi g'oyaviy tarmoqlar birlashadi.

2. Badiiy ijodda zamon va makon birligi.

Badiiy asar yaratishda har bir ijodkor ijodining umumiy yadrosini tashkil etuvchi zamon va makon birligi (xronotop) mavjudligini ko'ramiz.

M.Baxtin "Romanda zamon va xronotop shakllari" tadqiqotining Kirish qismida xronotopga quyidagicha ta'rif beradi:

"Adabiy-badiiy xronotopda makon va zamon alomatlarini bir butun va aniq idrok etish mumkin. Bu yerda vaqt tig'izlashadi, badiiy nigohga aylanadi; makon esa vaqt, syujet va tarix harakati

doirasida jadallashadi hamda kengayadi. Zamon alomatlari makonda ko'rina, makon zamonda o'lchanadi va anglanadi. Bunday qorishiq alomatlar oqimida badiiy xronotop tabiati namoyon bo'ladi.

Badiiy xronotop qat'iy janriy mohiyatga ega. Aytish mumkinki, janr va janrga xos xususiyatlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi. Xronotop shakliy mazmuniy kategoriya sifatida adabiyotda inson obrazi mohiyatini belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma'no kasb etadi" [Бахтин 2015, 43 – 44].

Agar masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, zamonaviy o'zbek nasrida barcha janr va mavzularda ko'plab asarlar yaratilganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, tarixiy mavzuda bitilgan tetralogiya, trilogiya, diologiyalar ham, romanning boshqa shakllari (she'riy roman, mini roman va h.)da bitilgan, shuningdek, qissachilik va hikoyachilikda ham shunday izlanishlar kechayotganiga guvoh bo'lamiz. Ulardagi xronotop, Baxtin ta'kidlaganidek, nafaqat janriga ko'ra, balki uslubiy o'ziga xoslik va ifoda usuliga (realistik, modernistik va postmodernistik) ko'ra ham farqlanishi kuzatiladi. Masalan, tarixiy romanlarda asosan tarixiy shaxs yashab o'tgan makon va zamon tasviri yetakchilik qilsa, zamonaviy asarlarda boshqacharoq kechadi: bunda ko'proq yozuvchining tug'ilgan va bolaligi kechgan joy tasviri makon sifatida olinishi – shaharda tug'ilgan adiblar ijodida shahar (X.Do'stmuhammad), qishloqda tug'ilib o'sgan ijodkorlarda ko'proq qishloq muhiti, ba'zan aralash – qishloq-shahar makon sifatida kelishi ko'zga tashlanadi (N.Eshonqul, A. Yo'ldosh, U. Hamdam va boshq.) Zamon sifatida asosan yaqin o'tmish – sho'ro davri tasvir obyektiga aylanganini ko'ramiz, ko'pchilik asarlarda esa sho'ro davri va bugungi kun qorishiq holda keladi.

Ayrim yozuvchilar ijodida makon sifatida shahar yoki qishloq tanlansa-da, ayrim ijodkorlar ijodida barcha asarlarida voqea-hodisalar yagona makonda kechadi. Masalan, M. M. Do'st ijodida Galatepa, N. Eshonqulda Tersota, A. Yo'ldoshda O'zbekovul shunday makon vazifasini o'taydi [Тешабоева 2025, 19].

3. Obrazlar tizimidagi mushtaraklik.

Ma'lumki ijodkor konsepsiyasini namoyon etuvchi asosiy unsurlar bu – asarlarning obrazlar tizimidir. Yozuvchi asar g'oyasini ham, xronotopini ham ifoda yo'sinini ham eng avvalo tanlagan qahramonlari, asarda tasvirlanayotgan obrazlar mohiyatiga singdirib yuboradi. Har qanday adib ijodida har bir asarida tarvirlanayotgan

qahramonlarning individual jihatlari bilan birga umumiasarlariga xos xislatlar mushtarakligi ham mavjud. Bu ham ijodkor Meniga xos xususiyatlardir. Chunonchi, X. Do'stmuhammad yaratgan barcha qahramonlar o'zining individual qiyofasiga ega bo'lishi bilan birga, barcha asarlarida aks etgan umumqiyofaga xos tabiati ham sezilib turadi. Bunday xususiyat N. Eshonqul va U. Hamdam ijodiga ham xosdir. N. Eshonqul yaratgan qahramonlar hikoyalaridan qissalariga, qissalaridan romanlariga ko'chib yurib, o'ziga xos obrazlar doirasini tashkil etgan.

Bundan tashqari ular tabiatida ruhiy drammatizmi kuchli, asabiy zo'riqish(stress) holatlarni boshidan kechirayotgan, ba'zan nomsiz, hayotdan zavq olmaydigan, negativ qarashlari ustuvor bo'lgan qahramonlar sirasiga kiradi. U.Hamdam qahramonlarining mushtarak jihatlari dunyoni anglashga uringan, ko'plab savollarga ("Yolg'izlik") javob olishga intilgan, hayotda muvozanat bo'lishi lozimligini ta'kidlagan ("Muvozanat"), muvozanat buzilgan joyda tizim ishdan chiqishi ta'kidlangan qahramonlar tizimi yaratilgan.

So'nggi davr o'zbek nasrida bunday holatning maydonga kelishi tasodif emas. Masalan, XX asr va XXI asrning dastlabki choragi jahon adabiy-estetik tafakkurida yangi bir bosqich sifatida tarixga muhurlandi. Jahonda ikki bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan jamiyatning paydo bo'lishi, ikki marta jahon urushini boshdan kechirish, ilm-fan, texnikaning mislsiz taraqqiyoti, katta sakrashlarni boshdan kechirgan rivojlanish, tanazzullar har xil po'rtanalarni vujudga keltirdi. Bunday o'zgarishlar silsilasi inson ong-u tafakkurida, ruhiyatida, ma'naviy olamida o'zgarishlar, yangilanishlar, evrilishlar, inqirozlar bo'lishiga yo'l ochdi. Natijada yaratilayotgan badiiy asarlarda ham xilma-xil yo'nalish va oqimlar vujudga kela boshladi. Ular o'z mohiyat e'tibori bilan turli xil g'oyaviy motivlarni ifodalashga xizmat qildi.

Natijada oldingilardan farq qiluvchi qahramonlar galeriyasi yaratildi va ular yangicha konsepsiyani aks ettirishga yo'naltirildi.

4. Yangicha ifoda mushtarakligi.

Ijodkor konsepsiyasining yetakchi xususiyatlaridan biri o'zida yangicha ifoda birligini yuzaga keltirish bilan belgilanadi. Ifodaning yangilanishi konsepsiya yangilanishi bilan bog'liq holda kechdi. Sho'ro davrida yaratilgan asarlar realistik uslub namunasi hisoblansa-da, lekin realistik ifodani ham sosealistik realizm qoliplariga moslashtirgani, sho'ro mafkurasiga yo'naltirgani bois tom ma'nodagi realizm talablariga javob beradigan asarlar kam yaratildi. Davr o'zgarishi tufayli shakllana boshlagan yangicha

dunyoqarash adabiyotda ham yangilanishlarga yo'l ochib, badiiy tafakkurni yangiladi. Natijada konsepsiyadagi o'zgarishlar ifodani ham unga moslashishga, o'zini yangilashga asos yaratdi. Ramziylik, metoforik ifoda yuqorida tilga olingan uchta ijodkor ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. Nasrdagi bunday yangilanishni U.Jo'raqulov quyidagi kuzatishlari bilan asoslaydi. Olim adabiy jarayonda vujudga kelayotgan yangilanishni Nurulloh Muhammad Raufxonning "Etakdagi kulba" hikoyasi bilan N. Eshonqulning "Bahouddinning iti" hikoyasi qiyosi orqali belgilashga harakat qiladi:

"Muddaoni bir tezis-jumlada ifodalaydigan bo'lsak, bu ikki asar uch nuqtada umumiylik kasb etadi va shu jihati bilan "yangi asar" atalishga loyiqdir. Bular: A) voqelikni idrok etish, badiiy ifodalash va unga poetik munosabatda metoforik madelning namoyon bo'lishi; B) badiiy talqinda assotsiativ usul (xayolan ortga qaytish) ning yetakchiligi; V) syujet va obrazlarning to'laligicha metaforaga qurilganligi" [Жўрақулов 2015, 218 – 219].

U. Jo'raqulov fikrini davom ettirib, hikoyalar xronotopi bugungi kun bilan chambarchas bog'liqligini yozar ekan, barchaga ma'lum voqelikning yangicha poetik manzarasi yaratilganini quyidagicha ta'kidlaydi. "Voqelikning badiiy shakllanishida ko'ringan nozik jarayon badiiy ifodaning bir butun **metaforik model** (ta'kid U. Jo'raqulovniki) qiyofasida aks etishini ta'minlagan" [Жўрақулов 2015, 219].

Xulosa

Olim ta'kidlayotgan ifodadagi bunday yangilanishlar har uchala adib ijodiga ham xos xususiyat ekanini hisobga olsak, yangi adabiyotning vujudga kelishida kimlarning hissasi ko'proq, degan xulosalarga javob topiladi. Demak, yozuvchi fenemonini anglatadigan, konsepsiyasini belgilaydigan, barcha asarlariga xos mushtarak jihatlarni namoyon etib turuvchi bir qator xususiyatlar borki, ular yozuvchi "men"ini belgilovchi jihatdir. Ularning eng muhimlari sifatida ijodkorning barcha asarlaridan qizil ip bo'lib o'tadigan mushtarak g'oyaviy birlik; badiiy ijodda zamon va makon birligi; obrazlar tizimidagi mushtaraklik; yangicha ifoda birligi deb belgilanadi. Shu asosda badiiy asar g'oyasi, g'oyaviylik tushunchalari ijodkor konsepsiyasini belgilovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanib, ijodkorning ijodiy niyati, asar yaratishidan maqsadi, mavzu ko'lami, obrazlar tizimi, shakl va mazmun birligi hamda ifoda uslubi kabi ko'plab badiiy unsurlarni bir-biriga bog'lab turadigan, yaxlit bir markazga birlashtiradigan vositasi safatida izohlanadi.

Badiiy asar yaratishda har bir ijodkor ijodining umumiy yadrosini tashkil etuvchi zamon va makon birligi (xronotop) mavjudligi M.Baxtin "Romanda zamon va xronotop shakllari" asariga tayanilib ochiladi. Ijodkor konsepsiyasini namoyon etuvchi asosiy unsurlar bu – asarlarning obrazlar tizimidir. Yozuvchi asar g'oyasini ham, xronotopini ham ifoda yo'sinini ham eng avvalo tanlagan qahramonlari, asarda tasvirlanayotgan obrazlar zamiriga singdirib yuboradi. Ijodkor konsepsiyasining yetakchi xususiyatlaridan biri o'zida yangicha ifoda birligini yuzaga keltirish bilan belgilanadi. Ifodaning yangilanishi konsepsiya yangilanishi bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar

- Абдулла Шер. 2017. *Гўзаллик ёғдуси*. Тошкент: Файласуфлар.
- Абдулла Шер. 2006. *Эстетика*. Тошкент: Фан.
- Бахтин, М. 2015. *Романда замон ва хронотоп шакллари*. Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси). Тошкент: Akademnashr.
- Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида*. 2010. О.Шарафиддинов таржимаси. Тошкент: Маънавият.
- Burkhanova, Feruz. 2022. "About the Analysis of Three Stories." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10 (10): 174 – 178.
- Ўзбек тилининг 5 жилдлик изоҳли луғати*. 2008. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5 жилд.
- Қаҳрамонов, Қ. 2009. *Адабий танқид янгиланиш жараёнлари*. Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
- Султон, И. 2005. *Адабиёт назарияси*. Тошкент: О'qituvchi.
- Умуров, Н. 2002. *Адабиёт назарияси*. Тошкент: Шарқ.
- Выготский, Л.С. 1968. *Психология искусства*. Москва: Просвещение.
- Гарб фалсафаси*. 2004. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров. Тошкент: Шарқ.
- Умберто, Э. 2006. *Поэтика Джойса*. Перевод с италянского и прочих Андрея Коволя. Санкт-Петербург Симпозиум.
- Йўлдошев, Қ. 2018. *Сўз ёлқини*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Ma'rifat*. 2018- yil 14-noyabr, № 91 (9156).
- Teshaboyeva, Z. 2025. *Abduqayum Yo'ldoshev qissa va hikoyalarida badiiy-uslubiy izlanishlar*. Fil. fan. b-cha fal. d-ri. diss. avroteferati. Toshkent.

The Concept of the Creative author and Ideological–Artistic Characteristics

Feruza Burkhanova¹

Abstrakt

The article examines the artistic concept of the creator in relation to its general classification, the notion of the creative self, individuality and the ideological and artistic characteristics of literary works. A number of features are identified that characterize the phenomenon of the writer, define the creative concept and reveal common elements inherent in all of the author's works, which together shape the writer's creative "I". Among the most significant of these features are the ideological unity that permeates the author's oeuvre as a unifying principle, the unity of time and space in artistic creativity, the coherence of the system of images, and the formation of a renewed mode of expression.

On this basis, the idea of a literary work is regarded as one of the key categories determining the creative concept and is interpreted as a means of integrating various artistic elements – such as the author's creative intention, the purpose of the work, the thematic scope, the system of images, the unity of form and content, and the mode of expression – into a single conceptual center. The presence of a unity of time and space (the chronotope), which constitutes the core of artistic creation, is revealed with reference to M. Bakhtin's work *Forms of Time and Chronotope in the Novel*.

The system of images is identified as the primary element through which the creative concept is realized. The author embeds the idea of the work, the chronotope, and the manner of expression into the characters and images portrayed in the text. One of the defining features of the creative concept is thus the formation of a new unity of expression, grounded in the principle that the renewal of expression is intrinsically linked to the renewal of the creative concept itself.

Key words: *artistic conception, artistic intention, ideological-artistic feature, ideological unity; chronotope, new unity of expression.*

References

Abdulla Sher. 2017. *Go'zallik yog'dusi*. Toshkent: Faylasuflar.

¹ *Burkhanova Feruza* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor, Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan.

E-mail: burhonovaf8@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6069-0267

For citation: Burkhanova, F. 2025. "The concept of the creative author and ideological–artistic characteristics". *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 72 – 88.

- Abdulla Sher. 2006. *Estetika*. Toshkent: Fan.
- Baxtin, M. 2015. *Romanda zamon va xronotop shakllari*. Rus tilidan U.Jo'raqulov tarjimasini). Toshkent: Akademnashr.
- Jahon adiblari adabiyot haqida*. 2010. O.Sharafiddinov tarjimasini. Toshkent: Ma'naviyat.
- Burkhanova, Feruza. 2022. "About the Analysis of Three Stories." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10 (10): 174 - 178.
- O'zbek tilining 5 jildlik izohli lug'ati*. 2008. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5 jild.
- Qahramonov, Q. 2009. *Adabiy tanqid yangilanish jarayonlari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi.
- Sulton, I. 2005. *Adabiyot nazariyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Umurov, H. 2002. *Adabiyot nazariyasi*. Toshkent: Sharq.
- Выготский, Л.С. 1968. *Psixologiya iskusstva*. Moskva: Prosveshenie.
- G'arb falsafasi*. 2004. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. Toshkent: Sharq.
- Umberto, E. 2006. *Poetika Djoysa. Perevod s italyanskogo i prochix Andrey Kovolya*. Sankt-Peterburg Simpozium.
- Yo'ldoshev, Q. 2018. *So'z yolqini*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Ma'rifat. 2018- yil 14-noyabr, № 91 (9156).
- Teshaboyeva, Z. 2025. *Abduqayum Yo'ldoshev qissa va hikoyalarida badiiy-uslubiy izlanishlar*. Fil. fan. b-cha fal. d-ri. diss. avroteferati. Toshkent.